

**SHUKUR XOLMIRZAYEV ASARLARIDA
LINGVOKULTUROLOGIK LEKSEMALARNING LINGVISTIK VA
BADIY TALQINI**

Termiz davlat universiteti O‘zbek
filologiyasi fakulteti 2-kurs talabasi
Choriyev Nurbek Jumanazar o‘g‘li

Annotatsiya: Ushbu maqolada Shukur Xolmirzayev asarlarida, ayniqsa, hikoyalaridagi lingvokulturologik leksemalarning lingvistik hamda badiiy xususiyatlari, shuningdek, bu jihatlar yozuvchi ijod mahsulidan olingan misollar yordamida ochib berildi. Mazkur tadqiqotning bosh maqsadi ushbu durdona asarning asosini o‘quvchilarga yetkazish hamda adabiyotshunoslik sohasiga oz bo‘lsa-da hissa qo‘shishdir.

Kalit so‘zlar: lingvokulturologiya, milliy kolorit, lingvistik va badiiy xususiyatlar, semantik boylik, dialektologiya, emotsional-ekspressiv, kognitiv funksiya, kommunikativ funksiya, estetik funksiya, madaniy transmissiya.

Shukur Xolmirzayev asarlari o‘zbek adabiyotida milliy ruh, xalqona tafakkur va madaniy qatlamlarning badiiy ifodasi bilan ajralib turadi. Yozuvchining ijodida lingvokulturologik so‘zlar — ya’ni til va madaniyat uyg‘unligida shakllangan birliklar — alohida ahamiyat kasb etadi. Ular nafaqat matnning semantik boyligini oshiradi, balki milliy dunyoqarashni, qadriyatlarni va tarixiy xotirani ham aks ettiradi.

Lingvokulturologik so‘zlarning lingvistik talqini:

Lingvokulturologik so‘zlar tilning oddiy leksik qatlamidan farqli o‘laroq, o‘zida muayyan xalqning turmush tarzi, urf-odati, mentaliteti va tarixiy tajribasini mujassamlashtiradi. Shukur Xolmirzayev asarlarida bunday birliklar ko‘pincha quyidagi shakllarda uchraydi: Birinchidan, milliy-realialar: “supra”, “do‘ppi”, “mahalla”, “xirmon” kabi so‘zlar o‘zbek xalqining kundalik hayotiga

xos tushunchalarni ifodalaydi. Tubanda fikrlarimizni yozuvchi asarlaridan olingan leksemalar bilan izohlaymiz:

Bo‘yra – bo‘yra, bordon; qamish. Tozalangan qamish cho‘pidan to‘qilgan to‘shama. Eslaringizdami... Zokirxo‘ja qassoblar gilam ustida o‘tirganda, biz o‘tirishga bo‘yra ham topolmas edik. P.Tursun, O‘qituvchi.

Gadoyboy bo‘yraga chordana qurib o‘tirdi-da, fotiha qildi. H.G‘ulom, Feruza. Tolzordagi tepasi bo‘yra bilan yopilgan yozlik choyxonada odam uncha ko‘p emasdi. S.Ahmad, Saylanma.

Bir bo‘yra 1) eni-bo‘yi bo‘yra hajmicha keladigan. Bir bo‘yra yer. ...uyning orqa devori bir bo‘yra eni kesib tushirilgan bo‘lib, qorayib ko‘rinardi. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar.

Bir bo‘yra yerning pichani o‘rib olinsa, bir mashina chiqaveradi. M.Ahmadjonov, Balli, zarbdorlar!

Rixsixon bir bo‘yragina yerga ekilgan piyozni o‘toq qilayotgan edi. S.Zunnunova, Go‘dak hidi;

2) bir bo‘yraning ustiga joy bo‘ladigan. Bir bo‘yra sholi. Bo‘yra puli tarixiy. Eski maktablarda talabalar o‘tiradigan bo‘yralarni yangilash uchun vaqti-vaqti bilan ota-onalardan olingan pul. – Chog‘imda, payshanba puli ham, supurgi puli ham, bo‘yra puli ham olmas kerak. Yo olarmikan-a? – Yo‘g‘e, o‘libdimi! M.Ismoilij, Farg‘ona tong otquncha.

Hozirgi eski maktablarimizda bolalar har payshanba non yoki nonning pulini olib boradilar. Bundan boshqa bo‘yra puli, ko‘mir puli... ham bor. Oybek, Tanlangan asarlar.

(Shukur Xolmirzayev. Saylanma. 1-jild. 34-betdan)

Jo‘ra – bir kiyimli ikki bo‘lakdan iborat ipakli mol (beqasam, atlas, shoyi va sh.k). Men keltirgan atlasni Yorim solmas sandiqqa. Ming jo‘rasi arziydi Shu zarbdor do‘ndiqqa. “Qo‘shiqqlar”.

– Bir jo‘ra atlas u yoqda o‘ttiz so‘m, – dedi Turob Usmonga. O.Husanov, Qo‘shiqchining taqdiri.

Senga bir jo‘ra beqasam olib qo‘ydim. A.Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari.
(Shukur Xolmirzayev. Saylanma. 1-jild. 46-betdan)

Ikkinchidan, dialektal birliklar: yozuvchi ayniqsa Surxon vohasi shevasiga xos so‘zlarni keng qo‘llaydi, bu esa nutqning tabiiyligini oshiradi.
Masalan:

Kanop – lotincha zig‘ir, kanop. 1. Poyasidan tola olinadigan, bir yillik baland o‘tsimon o‘simlik; uning tolasi. Kanop ekilgan maydon. Kanop fabrikasi. Kanop ip. Kanop arqon.

2. Shu toladan eshilgan ip. Qop og‘zini kanop bilan bog‘lamoq. Qop-qanorni kanop bilan tikadilar. Kanopning bir uchi katta xodaga, ikkinchi uchi qamishlarga bog‘langan, bularga hamma vaqt katta baliqlar ilinadi. J.Sharipov, Xorazm. (Shukur Xolmirzayev. Saylanma. 1-jild. 26-betdan)

Kapa – vaqtincha yashash uchun daraxt shoxlari va yirik o‘t-o‘lanlar bilan o‘rab quriladigan xona, yozlik uy; chayla. Hamma o‘ziga qamishdan kapa qilib olgan. S. Ahmad, Odamning izi.

Bahor va yoz kunlari kapada kun o‘tkazish mumkin-a, ammo qahraton qishda, ayniqsa kechalari, sira chidab turib bo‘lmasdi. J. Sharipov, Xora

(Shukur Xolmirzayev. Saylanma. 1-jild. 84-betdan)

Uchinchidan, lingvistik jihatdan bu birliklar semantik kengayish, konnotativ ma‘no va stilistik bo‘yoq orqali ajralib turadi. Ular ko‘pincha to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilib bo‘lmaydigan, faqat madaniy kontekstda anglashiladigan tushunchalardir. Misol uchun:

Kigiz – yungdan bosib tayyorlanadigan qalin pishiq palos; namat. O‘choqqa yaqinroq yerda, kigiz ustiga solingan ko‘rpachada, kichkina bir sariq, bujur odam ko‘k piyolada choy ho‘plab o‘tiribdi. P.Tursun, O‘qituvchi.

Kigiz bosish yungdan namat, palos kabi buyumlar (uy jihozlari va oyoq kiyimlari) tayyorlash. Kigiz etik s.t. Valenka, piymas... ko‘n etik, kigiz etik, pochapo‘stin... qo‘ying-chi, bozordagi yoymachida nima bo‘lsa, hammasidan bor edi. S.Siyoev, Yorug‘lik.

(Shukur Xolmirzayev. Saylanma. 1-jild. 34-betdan)

Korson – yog‘och yoki sopol xampa; quti. 1. Yog‘ochdan ishlangan katta tovoq. Bir katta qarag‘ay og‘ochning tagini o‘ydirib olgan katta korsoni bor edi, kichikroq hovuzday edi. “Oysuluv”.

Korsonda qimiz keldi. Bek bir-ikki zarangni ichgandan keyin yaslanib, ko‘kka qarab yotib oldi. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar.

Dasturxon ustiga bir korson shirqovoq qo‘yilgan. S.Ayniy, Doxunda.

2. Ayrim musiqa asboblarning tovushni kuchaytiradigan kovak qismi, qorni. Dastang zardolidan, korsoning archa, Bordir ohanglarning yoqimtoy ancha, Kuylasang, qo‘lingga mahliyo barcha, Suhbatning mash‘ali bo‘lgan, do‘mbiram. Yodgor baxshi.

3.Shevada: Egarning orqa qismi. Ot beliga tashlay berdi chol Soqi, Korsoni kumush, qoshi oltin egarni. “Xushkeldi”. O‘rtoq direktor egarda, men egar korsonini ushlab o‘tiribman. Sh.Xolmirzaev, Yo‘llar, yo‘ldoshlar.

4. Ot tuyog‘ining gardish qismi. Yigirma uch kecha-kunduz yugurib, Korsonidan ivib tushdi tuyog‘i. “Malikai ayyor”.

(Shukur Xolmirzayev. Saylanma. 1-jild. 9-betdan)

Badiiy talqin va estetik vazifa:

Shukur Xolmirzayev lingvokulturologik so‘zlardan faqatgina ma’no yetkazish uchun emas, balki badiiy tasvir vositasi sifatida ham mahorat bilan foydalanadi. Ularning badiiy talqini quyidagi jihatlarda namoyon bo‘ladi:

Avvalo, obraz yaratish vositasi sifatida: Qahramon nutqida ishlatilgan milliy va dialektal so‘zlar uning ijtimoiy kelib chiqishi, dunyoqarashi va ruhiy holatini ochib beradi. Xususan:

Kulala – jingalak soch. Kulala bo‘lib yotmoq Oyoq-qo‘lini yig‘ishtirib, g‘ujanak bo‘lib yotmoq. Ikkinchi supada bo‘lsa, bag‘rini bir umr yonboshdan ko‘tarmasdan, bir to‘da latta-puttalar orasida kulala bo‘lib, hikoyamizning qahramoni Mamajon yotar ekan. G‘. G‘ulom, Tirilgan murda.

(Shukur Xolmirzayev. Saylanma. 1-jild. 57-betdan)

Mayishmoq – 1. Bukilmoq, egilmoq (asosan qomat yoki oyoq-qo‘l haqida). Amakisi uning yelkasidan mahkam tutdi. Fotima yelkasiga tosh tushganday mayishdi. P. Tursun, O‘qituvchi.

Chap qo‘lim bilan zinapoya qanotiga suyangan edim, belim mayishib ketdi. P. Qodirov, Uch ildiz.

2. Qiyshaymoq. Shaftoli mayishib, butun tanasi bilan tokning so‘risiga yonboshlagan. H. Nu‘mon, Fasllar.

Oyog‘ida ipsiz, orqasi mayishgan botinka. S. Siyoev, Yorug‘lik.

3. Ko‘chma: tarafini olmoq; qo‘llab-quvvatlamok. Chol befarzand bo‘lgani uchun, usta uni g‘arib bir odam deb mayishar, chol ham ustani hurmat qilardi. O. Yoqubov, Larza.

(Shukur Xolmirzayev. Saylanma. 1-jild. 69-betdan)

Shuningdek, milliy koloritni kuchaytirish: Matnda ishlatilgan lingvokulturologik birliklar voqelikni jonlantirib, o‘quvchini muhit ichiga olib kiradi. Chunonchi:

Lo‘la – quvur, truba: lo‘la bolish. G‘o‘la shaklidagi yostiq. Qarasam, lo‘la bolishdek bahaybat bir maxluq... xunuk tumshug‘ini nam tuproqqa tirab, hansirab yotibdi. Y,Shamsharov, Qahramonlik yo‘li.

Payg‘omov lo‘la bolishga yonboshlab, Nusratbekka ham yostiqlardan surib qo‘ydi. S.Nurov, Narvon.

(Shukur Xolmirzayev. Saylanma. 1-jild. 19-betdan)

Paxsa – 1. Pishitilgan loydan ustma-ust bosib qurilgan devor va uning har bir qavati, qatori. Bir paxsa devor. Paxsa qo‘ymoq (urmoq). Uch Kundan keyin eshigimizga qora otliq keldi. Paxsadan bo‘ynini cho‘zib qichqirdi. S.Siyoev, Yorug‘lik.

2. Paxsadan iborat, paxsadan qilingan, qurilgan. Unda-bunda qurilgan paxsa uylarda go‘yo hayot yo‘qday. “Saodat”.

Paxsa devorlar nurab, qator tuyalarning o‘rkachlaridek baland-past bo‘lib qolgan. H.G‘ulom, Mash‘al.

Qo‘lini paxsa qilmoq, kaftini katta ochgan holda qo‘lini tinglovchi tomon cho‘zib, dag‘dag‘a bilan gapirmoq. Oqsoqol odamlarni klubga to‘plab, va‘zxonlik qildi. Qiziq, chol qo‘lini paxsa qilib, shunaqangi gaplar aytdiki, hammasi qulog‘imga mixlanib qoldi. O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi.

Bolta Muallim tezgina uning oldiga o‘tib, qo‘llarini paxsa qilib, allanimalarni tushuntira ketdi. N.Norqobilov, To‘qnashuv.

3. Ko‘chma: karra, daraja. Ganjaning kayfiyati yana bir karra ko‘tarildi. E.Samandar, Daryosini yo‘qotgan qirg‘oq.

(Shukur Xolmirzayev. Saylanma. 1-jild. 35-betdan)

Bundan tashqari, emotsional-ekspressiv ta‘sir: Bunday so‘zlar orqali muallif hissiy rang-barangligini oshiradi, o‘quvchiga chuqur ta‘sir o‘tkazadi. Misol uchun:

Tushovlamoq – tushov bilan oyoqlarini bog‘lamoq, oyog‘iga tushov solmoq. Qo‘radan tashqaridagi maydonda ikki tuya yonma-yon cho‘ktirilib, tizzalari chilvir bilan bog‘langan va ikki eshak tushovlab qo‘yib yuborilgan edi. S. Ayniy, Qullar.

Otlarni tushovlab, o‘tga qo‘yib kelayotgan Sherbek uzoqdan. -Horma, Suvonjon! – deb qichqirdi. S. Anorboev, Oqsoy.

2. Ko‘chma: erkin harakatlana olmaydigan qilmoq, izmiga bo‘ysundirmoq. Oramizda hech narsa yo‘qligini, boshqalar bilmasa ham, siz bilasiz. Endi o‘sha yolg‘on gap-so‘zlar bilan meni tushovlab olmoqchimisiz P. Qodirov, Qalbdagi quyosh.

Ibrohimbek miyig‘ida kulumsiradi. Kulumsiradi-yu, yigitni baharhol tushovlab olgandek tuydi o‘zini. Sh. Xolmirzaev, Qil ko‘prik.

(Shukur Xolmirzayev. Saylanma. 1-jild. 19-betdan)

Yalang – 1. Dov-daraxtsiz, imoratsiz; ochiq, bo‘sh. Yalang yer. Yalang maydon. Yalang qir. Hammanglar ham yalang dalada tug‘ilganmisizlar Shuhrat, Shinelli yillar.

Atrof yalang, qum sahrosi. Sh. Toshmatov, Erk qushi.

ilmiy –amaliy anjuman

Qumli do‘nglikning oldi dengiz tomon pasayib, keti yalang tekislikka tutashadi. “Fan va turmush”.

2. ayn. yalanglik. Ahmadjon sinchiklab qarasa, ehye.. shuncha odam kecha kechasi qayerda ekan Yalanglarga, yo‘lkalarga odam sig‘ishmas edi. A. Qahhor, Oltin yulduz.

-Mehmonlarni kutib ol, qizim. Mana bu yerga joy qil, – dedi.. Abduvali ota, chayla yonidagi yalangni ko‘rsatib. H. Ibrohimov, Oddiy kechada.

3. Kiyimsiz, yalang‘och. Egnida bir yengi tirsakdan, bir bari tamoman yo‘q ilma-teshik bo‘z yaktak.. bosh-oyog‘i yalang.. cholni ko‘rib, G‘ulomjonning yuragi ezilib ketdi. M. Ismoilov, Farg‘ona t. o.

Egnida otigina qolgan juldur yaktak, yirtiq ishton, oyoqlari yalang.. M. Ismoilov, Farg‘ona t. o.

4. Bir qavat, yengil, yupqa kiyimda. Oynisaning yuragi urib, sovuqqa yalang chiqqanday, eti uvishib ketdi: Urush!. H. G‘ulom, Toshkentliklar.

5. ayn. yalang qavat. Shoirning ustida yalang qo‘ng‘ir movut chakmon. Oybek, Navoiy.

6. Qindan chiqarilgan; yalang‘och. Qirq azamat, bo‘l ha-bo‘l deb, Qilich yalang kelayotir. “Xushkeldi”. Yalang qavat - 1) bir toladan iborat, bir qavat. Yalang qavat ip; 2) faqat avradan iborat, astarsiz. Yalang qavat to‘ni tagidan ikki qo‘lini orqasidan o‘tkazib, qadam sanab borayotgan Mahkam taqachi ko‘rindi. R. Fayziy, Hazrati inson.

(Shukur Xolmirzayev. Saylanma. 1-jild. 31-betdan)

Lingvokulturologik qatlamning funksional ahamiyati:

1.Kognitiv funksiya – o‘quvchiga milliy dunyoqarashni anglash imkonini beradi.

2.Kommunikativ funksiya – matnning tabiiyligini va ishonchliligini ta‘minlaydi.

3.Estetik funksiya – badiiy zavq uyg‘otadi, obrazlilikni kuchaytiradi.

ilmiy –amaliy anjuman

4. Madaniy transmissiya – avloddan-avlodga madaniy qadriyatlarni yetkazadi.

Xulosa qilib aytganda, Shukur Xolmirzayev asarlarida lingvokulturologik soʻzlar oddiy til birliklari emas, balki xalq ruhiyatining ifodachisi sifatida namoyon boʻladi. Ular orqali yozuvchi oʻzbek xalqining turmush tarzini, maʼnaviy olamini va tarixiy xotirasini badiiy shaklda gavdalantiradi. Shu bois, uning ijodini lingvokulturologik nuqtai nazardan oʻrganish nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik uchun ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Холмирзаев Шукур. Танланган асарлар: Ҳикоялар. –Т.: “Шарқ”2009.
2. Танланган асарлар: Ҳикоялар. –Т.: “Шарқ”2020.
3. То‘хта Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari. O‘zbekiston nashriyoti. Toshkent-2002.
4. Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish . Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. Toshkent- 2004.